

**MUSIQIY IDROKGA TA’SIR QILUVCHI TENDENTSIYALARDA
EKSPERIMENTAL ISHLAR TAHLILI**

A.Sultonov- Farg‘ona Davlat universiteti musiqiy ta’lim va madaniyat kafedrasini o‘qituvchisi

**АНАЛИЗ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ТЕНДЕНЦИЯМ,
ВЛИЯЮЩИМ НА МУЗЫКАЛЬНОЕ ВОСПРИЯТИЕ**

А.Султанов – преподаватель кафедры музыкального образования и культуры Ферганского государственного университета

**ANALYSIS OF EXPERIMENTAL WORK IN TRENDS AFFECTING
MUSICAL PERCEPTION**

A.Sultanov – teacher of the Department of musical education and culture of Fergana State University

Kalit so‘zlar. Musiqiy idrok, tendensiya, transformatsiya, musiqiy ijodkorlik, cholg‘u ijrochiligi, mahorat, innovatsion ta’lim, interfaol, o‘zini-o‘zi o‘qitish, elektron dars,

Ключевые слова. Музыкальное восприятие, тренд, трансформация, музыкальное творчество, инструментовка, мастерство, инновационное обучение, интерактивное, самообучение, электронный урок,

Keywords. Musical perception, tendency, transformation, musical creativity, Instrumental Performance, skill, innovation education, interactive, self-teaching, electronic lesson,

Annotatsiya

Ushbu maqolada innovatsion ta’lim sharoitida musiqiy idrokiga ta’sir qiluvchi tendentsiyalar tajriba sinov ishlari tahlili o‘rganilgan.

Аннотация

В этой статье рассматриваются тенденции, влияющие на восприятие музыки в инновационной образовательной среде.

Annotation

This article explores trends affecting musical perception in the context of innovative education in isolation, and analysis of test work

Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi Akmaljon Sultanov tomonidan tayyorlangan “4K” musiqa o‘qitish texnologiyalarida innovatsion yondashuv” nomli elektron darsligi yaratildi. Innovatsion ta’lim sharoitida musiqiy idrokka ta’sir etuvchi transformatsion tendensiyalarning pedagogik mazmun-mohiyatini tadbiiq etishga hizmat qiluvchi mazkur elektron darslikda musiqiy idrokka ta’sir etuvchi tendensiyalarni rivojlantirish, o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixor, moddiy va ma’naviy merosga qadriyatli munosabat hamda vatanparvarlik, shukronalik tuyg‘ularini shakllantirish, o‘quvchilarda musiqa tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalar orqali kommunikativ, motivatsion, ta’lim jarayonini tashkil etish, ta’limni loyihalash, milliy musiqa namunalari bo‘yicha amaliy shakllari (tinglash, xis etish, idrok etish, tushunish, qabul qilish, xissiy-irodaviy ta’sir ko‘rsatish)ni o‘z-o‘zini rivojlantirish asosida o‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llashda (AutoPlay Media programm), multemediyali maxsulotlardan foydalanishning innovatsion ta’lim (Abode Flash) resurslarini tadbiiq etish va musiqiy ta’limda o‘qitish bo‘yicha yangicha yondashuvi ishlab chiqilganligi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan uslubiy tavsiya hamda darslik, amaliy ishlanmalar oliy ta’lim, umumta’lim va san’at maktablarida musiqa o‘qitish samaradorligini oshirish borasidagi ishlarda musiqa o‘qituvchisi uchun muhim metodik yordam vazifasini o‘taydi hamda yoshlarda innovatsion ta’lim sharoitida musiqiy idrokka ta’sir etuvchi tendensiyalarning rivojlanishiga ilmiy-amaliy xizmat qiladi.

Yaratilgan elektron dasturning samaradorligini aniqlashda tajriba sinov ishlari o‘tkazildi. Tajriba sinov ishida Namangan, Farg‘ona hamda Andijon viloyatlarining umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-7 sinflari tadqiqotning ob’ekti sifatida belgilab olindi. Jumladan, Namangan viloyatining Norin tumani 37, 39, 41-umumta’lim maktablaridan 233 nafar, Farg‘ona viloyati Toshloq tumani 5-14-umumta’lim maktablari hamda Marg‘ilon shahar 1-IDUMllaridan jami 242 nafar, Andijon viloyatining Baliqchi tumani 14, 34, 50-umumta’lim maktablaridan 228 nafar, jami 703 nafar o‘quvchi respondent sifatida qatnashdi. Olib borilgan tadqiqotning samaradorligini shaffof baholash maqsadida nazorat sinfi uchun ham ishtirokchi sinf o‘quvchilari tasodifiy tanlash yo‘li bilan jalb etildi.

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarida innovatsion ta’lim sharoitida musiqiy idrokka ta’sir etuvchi transformatsion tendensiyalar bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining ilk natijalari 1-jadvalda keltirildi.



1-jadval

Innovatsion ta’lim sharoitida musiqiy idrokka ta’sir etuvchi tendensiyalar
bo’yicha tajriba boshidagi natijalar

№	So’rovnoma savollari	Tajriba sinfi				Nazorat sinfi			
		Jami o’quvchilar soni – 355 nafar				Jami o’quvchilar soni – 348 nafar			
		Juda yaxshi	yaxshi	o’rtacha	past	Juda yaxshi	Yaxshi	O’rtacha	Past
1	Tinglanilgan musiqiy asarni idrok etilishi	36	137	127	55	35	131	114	68
2	Tinglangan musiqiy asarni tahlil eta olish	42	131	128	54	37	133	112	66
3	Musiqiy asarni ijro etib berish.	41	135	129	50	33	131	114	70
4	Nota o’qish malakasi	37	136	131	51	34	134	113	67
5	Milliy cholg’u sozlarini bilishi	38	133	128	56	36	130	113	69
6	Milliy va zamonaviy musiqa haqida bilishi	40	132	129	54	38	132	112	66
7	Musiqiy dasturiy vositalardan foydalana olishi	39	134	130	52	32	133	111	70
	O’rtachasi	39	134	129	53	35	132	113	68

Innovatsion ta’lim sharoitida musiqiy idrokka ta’sir etuvchi tendensiyalar bo’yicha tajriba boshidagi natijalarning o’rtacha statistik ko’rsatkichga ko’ra 355 nafardan iborat tajriba sinov sinfining juda yaxshi 39 nafar, yaxshi 134 nafar, o’rtacha 129 nafar, past natijani 53 nafar o’quvchilar qayd etishdi. 348 nafardan iborat nazorat sinfi o’quvchilaridan juda yaxshi 35 nafar, yaxshi 132 nafar, o’rtacha 113 nafar, past 68 nafar o’quvchilar munosabat natijasini ko’rsatdilar.

Yuqorida keltirilgan mezonlar bo‘yicha amalga oshirilgan innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari bo‘yicha bajarilgan tajriba-sinovning yakuniy qismida statistik ko‘rsatkichlar tahlilini amalga oshirish davomida o‘qitish samaradorligi darajasini aniqlashga qaratilgan savolnoma natijalari hisobga olindi.

Quyida keltirilgan jadvallarda umumta’lim maktablarida olingan natijalarning yakuniy miqdor ko‘rsatkichlari 2-, 3-, 4-jadvallarda keltirib o‘tilgan.

2-jadval

**Innovatsion ta’lim sharoitida musiqiy idrokka ta’sir etuvchi tendensiyalar
bo‘yicha yakuniy javob natijalari**

№	So‘rovnoma savollari	Tajriba sinfi				Nazorat sinfi			
		Jami o‘quvchilar soni – 355 nafar				Jami o‘quvchilar soni – 348 nafar			
		Juda yaxshi	Yaxshi	o‘rtacha	past	Juda yaxshi	Yaxshi	o‘rtacha	Past
1	Tinglanilgan musiqiy asarni idrok etilishi	157	117	51	31	37	154	136	47
2	Tinglangan musiqiy asarni tahlil eta olish	155	116	52	37	34	158	132	51
3	Musiqiy asarni ijro etib berish.	154	118	49	32	31	155	134	51
4	Nota o‘qish malakasi	156	115	53	36	34	157	135	48
5	Milliy cholg‘u sozlarini bilishi	158	116	48	36	36	156	137	50
6	Milliy va zamonaviy musiqa haqida bilishi	153	119	47	32	32	154	133	47
7	Musiqiy dasturiy vositalardan foydalana olishi	159	118	50	32	37	158	135	49
	O‘rtachasi	156	117	50	32	38	143	118	49

Dastlabki bosqichda olib borilgan matematik statistik metodga ko‘ra umumta’lim maktab o‘quvchilarida innovatsion ta’lim sharoitida musiqiy idrokka ta’sir etuvchi tendensiyalar bo‘yicha so‘rovnomalar yuzasidan tajriba va nazorat sinflarning yakuniy javoblari tanlanmalar sifatida belgilanib juda yaxshi, yaxshi, o‘rtacha va past darajalar bo‘yicha variatsion qatorlarning empirik qiymatlari umulashtirilib o‘rtacha arifmetik qiymat natijalari belgilab olindi.

Yuqoridagi jadvallar asosida tajriba va sinov ob’ektlari kesimida innovatsion ta’limda o‘quvchilarda musiqiy idrokka ta’sir etuvchi tendensiyalar bo‘yicha yakuniy solishtirma tahlilini keltiramiz(3-jadval).

3-jadval

Innovatsion ta’lim sharoitida musiqiy idrokka ta’sir etuvchi tendensiyalar bo‘yicha o‘quvchilar qatnashgan tajriba-sinov natijalarining yakuniy solishtirma jadvali

Tajriba	vakanida	Tajriba-sinov ob’ektlari	Juda yaxshi	Yaxshi	O‘rtaca	Past	Jami
		Farg‘ona	53	39	19	12	123
	Andijon	54	38	14	9	115	
	Namangan	49	40	17	11	117	
	Jami	156	117	50	32	355	
Tajriba	boshida	Tajriba-sinov ob’ektlari	Juda yaxshi	Yaxshi	O‘rtaca	Past	Jami
		Farg‘ona	14	48	39	18	119
	Andijon	11	50	38	14	113	
	Namangan	13	45	41	17	116	
	Jami	38	143	118	49	348	

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba-sinov jarayoniga jalb etilgan nazorat sinfidagi o‘quvchilarga nisbatan tajriba sinfi o‘quvchilarida bilim, ko‘nikma va malakalar samarali shakllanishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan.

Quyidagi jadvallar asosida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqich tadqiqot natijalarining qiyosiy tahlili keltirilgan.



4-jadval


Innovatsion ta’lim sharoitida musiqiy idrokka ta’sir etuvchi transformatsion tendensiyalar bo’yicha tajriba-sinov natijalarining qiyosiy tahlili (son va foizlarda)

Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish natijalari (% da)			
		Juda yaxshi	Yaxshi	O‘rtaca	Past
Tajriba yakunida	355	156 44	117 33	50 14	32 9
Tajriba boshida	348	38 11	143 41	118 34	49 14

Amalga oshirilgan tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba sinfi o‘quvchilarida nazorat sinfidagi o‘quvchilarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakaning samarali shakllanganligi aniqlandi. Tadqiqotni ob’ektiv baholash uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metodning afzallik tomoni shundaki, u ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash hamda ularni ob’ektiv baholash imkoniyatiga ega. Olib borilgan tadqiqotning matematik statistik metodi mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichda nazorat va tajriba guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko‘rsatkichlari bo’yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo‘ldi.

Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi.

Research Science and Innovation House



2-rasm. Innovatsion ta'lim sharoitida musiqiy idrokka ta'sir etuvchi transformatsion tendensiyalar bo'yicha tajriba-sinov natijalarining diagrammasi

Keltirilgan diagrammadan yashil rang bilan qayd etilgan ko'rsatkich tajriba yakunidagi yuqori va o'rta ko'rsatkich natijalari tajriba boshidagi ko'rsatkichlaridan yuqori ekanligini isbotladi.

Matematik statistik tahlil etish orqali tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari topildi.

5-jadval

Innovatsion ta'limda musiqiy idrokka ta'sir etuvchi transformatsion tendensiyalarning pedagogik tahlili bo'yicha tajriba-sinov natijalarining statistik ko'rsatkichlari

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
4,12	3,49	0,9256	0,7499	1,24	1,32	10,5	701	105,41	0,10	0,09

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlari quyidagicha ishlab chiqildi.

Ma'lumki, $\bar{X}=4,12$; $\bar{Y}=3,49$; $\Delta_x=0,10$; $\Delta_y=0,09$ ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichi:

$$K_{y\sigma\bar{x}} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{4,12 - 0,10}{3,49 + 0,09} = \frac{4,02}{3,58} \approx 1,12 > 1;$$

$$K_{\sigma\bar{x}\bar{y}} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (4,12 - 0,10) - (3,49 - 0,09) = 4,02 - 3,40 = 0,62 > 0;$$

Olingan natijalardan o‘quvchilarning innovatsion ta‘lim sharoitida musiqiy idrokka ta‘sir etuvchi tendensiyalarni baholash mezonining (>1) birdan kattaligi hamda bilish darajasini baholash mezonining (>0) noldan kattaligi orqali ko‘rish mumkin. Matematik statistik natijalaridan ko‘ra, o‘quvchilarda innovatsion ta‘lim sharoitida musiqiy idrokka ta‘sir etuvchi tendensiyalar bo‘yicha tajriba sinflaridagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlaridan yakuniy hisob bilan (12,6 % ga) yuqori natija ega ekanligini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqot natijalari olingan statistik tahlillar bo‘yicha tajriba–sinov ishlari samarador ekanligini shuningdek, amalga oshirilgan tadqiqotdan ko‘zlangan maqsadda natijadorlikka erishilganligini tasdiqlandi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqotlar va ularning natijalari qo‘yilgan farazlarni to‘la tasdiqladi hamda quyidagilarni xulosalashga imkoniyat yaratdi:

1. Innovatsion ta‘lim sharoitida musiqiy idrokka ta‘sir etuvchi transformatsion tendensiyalarni shakllantirishning didaktik asoslarini yaratish dolzarb muammolardan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslanildi;

2. O‘quvchilarni innovatsion ta‘lim sharoitida musiqiy idroklariga ta‘sir etuvchi tendensiyalarini shakllantirish bo‘yicha bir qator didaktik xususiyatlar, pedagogik-psixologik yondashuvlarni alohida hisobga olish, o‘quv topshiriqlar tizimini shakllantirish va o‘quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir;

—3.— Musiqiy idrokka ta‘sir etuvchi tendensiyalarni rivojlantirish orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixor, moddiy va ma‘naviy merosga qadriyatli munosabat hamda vatanparvarlik, shukronalik tuyg‘ularini shakllantirishning innovatsion ta‘lim usullarini ishlab chiqishda davlat ta‘lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishishning ilmiy amaliy yechimlari amaliy jihatdan o‘rganildi

4. Tajriba-sinov natijalari innovatsion ta‘lim sharoitida musiqiy idrokka ta‘sir etuvchi tendensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatda

qo‘llanilgan metodikaning samaradorlik darajasini asoslab berish orqali tadqiqot ilmiy farazining to‘g‘riligini ko‘rsatdi.

Bundan tashqari amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan innovatsion ta‘lim sharoitida o‘quvchilarning musiqiy idroklariga ta‘sir etuvchi tendensiyalarni shakllantirishda quyidagicha tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. innovatsion ta‘lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘quv mashg‘ulotlariga barqaror qiziqishini hosil qilishlari uchun har taraflama puxta aniq va qiziqarli tayyorgarlik ko‘rishga erishish;

2. mashg‘ulotlar davomida musiqiy idrokni rivojlantirishning innovatsion ta‘lim yutuqlarni o‘zlashtirish;

3. milliy musiqa tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga milliy cholg‘u sozlarimizni tadbqiq etish va o‘rganishning yangicha samarali yo‘llarini izlab toppish;

4. mashg‘ulot jarayonida bajariladigan ayrim harakatlar, topshiriqlarni bajarishni o‘quvchilar mustaqil mashqlarni bajarishlarida innovatsion texnologiya mazmuni, mohiyati, amalga oshirish tartibi haqida maslahatlar berib borish;

5. musiqa tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishning interfaol ta‘lim metodlari va texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatlarining shakllanlanishga erishish.

6. har bir mashg‘ulot yakunini jamoa bo‘lib tahlil va muhokama qilish natijasida o‘rganilgan bilimni yanada mustahkamlash;

7. musiqiy mashg‘ulot o‘quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo‘nalishlarini kuchaytirish;

8. o‘quvchilar muammolarni ijodiy yechish va ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishda o‘quvchilarni o‘qituvchi va tengdoshlarining o‘zini-o‘zi o‘qitish, masofaviy o‘qitishda innovatsion ta‘lim samaradorligidan ijobiy foydalana olish.

9. musiqa terminlarini izohlashda turli dastury ta‘minotdan foydalana olishi ko‘nikmasiga ega bo‘lish va boshqalar.

Bir so‘z bilan aytganda olib borilayotgan musiqa mashg‘ulotlari davomida musiqiy idrokka ta‘sir etuvchi tendensiyalarning eng samarali metodlaridan unumli foydalanish fanning bugungi kun pedagoglari oldiga qo‘ygan muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Normuhammatovich, S. A. (2022). O‘QUVCHILARDA MILLIY MUSIQA ESHITISH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. *Science and innovation*, 1(B2), 259-263.
2. Sultonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA’SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 314-323.
3. Shokirov, T. N. (2022). MILLIY MUSIQA MADANIYATI VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI (folklor, dostonchilik, maqom misolida). *Science and innovation*, 1(C3), 31-38.
4. Shokirov, T. N. (2022). SUCCESSION IS THE MAIN PRINCIPLE OF DEVELOPMENT OF NATIONAL MUSIC CULTURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 1-10.
5. Shokirov, T. N. (2022). ABU NASR FOROBIYNING MUSIQA ILMIGA QO‘SHGAN HISSASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 353-359.
6. Kirgizov, I., Kirgizov, I., Najmetdinova, M., & Atabayeva, S. (2022, February). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. In *Archive of Conferences* (pp. 57-60).
7. Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmammedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., & Juraevna, A. S. (2021). The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2410-2413.
8. Ergashev, A. (2022). MUSIC EDUCATION IN FOREIGN COUNTRIES. *Science and Innovation*, 1(7), 262-265.
9. Tursinovich, A. K., & Abdullayevich, A. E. (2022, June). MILLIY-AN’ANAVIY MUSIQIY CHOLG’U SOZLARINING TASNIFI. In *Archive of Conferences* (pp. 245-248).

10. Tursinovich, A. K., & Abdullayevich, A. E. (2022). MILLIY-AN'ANAVIY MUSIQIY CHOLG'U SOZLARINING TASNIFI. *Archive of Conferences*, 245-248.
11. Mannopov, S., Karimov, A., Ataboeva, S., Ergashev, A., & Usmanova, S. (2021). Development Of Symphonic Music in Uzbekistan. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 53-56.
12. Karimov, A., Mamaziyaev, K., Kholikova, G., Ergashev, A., & Kirgizov, I. (2021). Symbol Of Instruments In State Performance Served In Uzbekistan. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
13. Ergashev, A. (2022). MUSIQA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 545-554.
14. Juramirzayev, A., & Ergashev, A. (2022). THE SCIENTIFIC AND CREATIVE ROLE OF THE PEOPLE'S ARTIST OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, PROFESSOR SULTANALI MANNOPOV IN THE PROMOTION OF THE UZBEK NATIONAL MUSICAL ART. *Science and innovation*, 1(B7), 121-125.
15. Ergashev, A. (2022). XORIJIY DAVLATLARDA MUSIQA TARBIYASI. *Science and innovation*, 1(C7), 262-265.
16. Ergashev, A., Ataboyeva, S., Djalalova, N., & Usmonova, S. (2021). THE ROLE OF COMPOSERY IN THE ART OF NATIONAL SINGING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 863-867.
17. Xusanovna, D. N. (2023, April). BOLALAR FALSAFASI VA UNING SHAXS RIVOJIDAGI O'RNI. In *E Conference Zone* (pp. 73-78).
18. Djalalova, N. (2023). YOSHARNING ESTETIK TAFAKKURINI TARBIYALASH VA YUKSAKTIRISHDA MUSIQIY MADANIYATNING O'RNI. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(4), 7-10.
19. Djalalova, N. (2023). PIANO PERFORMANCE AS A FACTOR THAT ACTIVATES STUDENTS' MUSICAL AND AESTHETIC WORLD VIEWS AND DEVELOPS MUSICAL CULTURE. *Science and innovation*, 2(B4), 339-342.

20. Djalalova, N. (2022). МУСИҚИЙ ВА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ АСОСЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B8), 478-481.
10. Abdumalikovna, Y. D. (2021). The Role and Importance of Culture and Art in The Development of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 1-3.
11. Juraevna, A. S., Abdumalikovna, Y. D., & Xusanovna, D. N. (2021). MODERN SOCIAL AND PEDAGOGICAL FUNCTIONS OF MUSIC ART AND EDUCATION. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 57-59.
12. Тешабаева, О. Н., & Юлдашева, Д. А. (2022). Ўзбекистонда банк хизматлари бозори бошқаруви ва ривожланишининг хусусиятлари. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(3), 91-97.
13. Sobirov, B., Yuldasheva, D., Iroda, N., & Laylo, T. (2022, February). MUSICAL WORKS AND THEIR PLACE IN HUMAN LIFE. In *Archive of Conferences* (pp. 53-56).
21. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. *Scientific progress*, 2(2), 1313-1315.
22. Namozova, D. (2022). BO ‘LAJAK MUSIQA O ‘QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI MUSIQA TARIXI FANINI O ‘QITISH VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH. *Science and innovation*, 1(B6), 942-950.
23. Sultonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA’SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 314-323.
24. D Namozova, Z Astanova, M Egamberdiyev APPROACH TO THE USE OF THE LIVES AND WORKS OF BLIND MENTOR ARTISTS IN EDUCATING YOUNG PERFORMERS (ON THE EXAMPLE OF RASULQORI MAMADALIYEV) *Science and innovation* 2 (B4), 149-151

25. Rustamov, I. (2022). DOYRA CHOLG‘USIDA IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDA QO‘LLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI. *Science and innovation*, 1(B6), 456-460.
26. Rustamov, I. (2022). The Place of Doira Instrument in Uzbek National Art. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 74-77.
27. Rustamov, Ismoil (2023). DOIRA CHOLG‘U IJROCHILIGIDA IJROVIY USULLARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (4), 74-79.
28. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN‘ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
29. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
30. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.
31. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
32. Xojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG ‘USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
33. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
34. Najmetdinova, M. . (2023). YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASINI YUKSALTIRISHDA OMMAVIY-MADANIY TADBIRLARNING FALSAFIY TAHLILI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(6), 17–24.

35. Najmetdinova, M. MAQOM SANʼATI VA UNING EʼSHLAR
MAʼNAVIIY DUNYOQARASHIGA TAʼSIRI *Oriental renaissance:
Innovative, educational, natural and social sciences*, 2023
36. M.M. Najmetdinova - YOSHLARNING ESTETIK TARBIYASINI
SHAKLLANTIRISHDA – AJDODLAR MEROSINING TUTGAN OʻRNI
Finland International Scientific Journal of Education ..., 2023



Research Science and
Innovation House

